



Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!

Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqqa boshlagan



www.zarnews.uz [@zarnews_uz](https://www.facebook.com/zarnews.uz) [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)



INVESTITSIYA SALOHIYATIMIZ XITOYDA NAMOYISH ETILDI

Viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi A.Boboyev boshchiligidagi hududlar rahbarlari va tadbirkorlardan iborat delegatsiya Xitoy Xalq Respublikasida ishchi tashrif bilan bo'lib turibdi.

Tyanszin shahri partiya qo'mitasi kotibi Chen Miner bilan uchrashuvda A.Boboyev Samarcand – Tyanszin zamonaviy sanoat parkini qurish, elektr transport vositalari va ularning ehtiyoj qismalari ishlab chiqarish hamda onlayn sotuvni yo'iga qo'yish va sun'iy intellektidan foydalish hamkorlikda o'quv markazlari tashkil etish bo'yicha takliflar bildirdi. Tyanszin shahri rasmiy valiklari va tadbirkorlarini Samarcandaqda taklif etdi.

O'z navbatida, partiya qo'mitasi kotibi Chen Miner bildirilgan barcha takliflarni qo'llashini va amaliy yordam berishga tayyorligini bildirdi.

Tyanszin shahrida ikki mintaqaga rahbar va tadbirkorlari ishtirokda biznes-forum bo'lib o'tdi.

Forum avvalida Samarcand viloyati va Tyanszin shahri rahbarlari so'zga chiqib, o'z hududlarining iqtisodiy salohiyati va



investitsiyaning imkoniyatlari haqida ma'lumot berdi.

Jumladan, viloyatimiz yetakchisi xitoylik investorlarni yurtimizga taklif etib, investitsiya kiritgan holda tadbirkorlik qilishlari uchun qonun doirasida barcha amaliy yordamlarni ko'rsatishga tayyorligini bildirdi.

Forum doirasida viloyatimizning investitsion jozibadorligi taqdirmoti o'tkazildi. Hamkorlik yo'naliishlari va istiqbollari haqida ma'lumotlar berildi.

Shundan so'ng biznes-forum doirasida samarcandlik va guangdonglik tadbirkorlarning B2B va G2B uchrashuvlari o'tkazildi.

O'zaro muloqot va muhokamalar yakunida "Hubei Group" kompaniyasi bilan misni qayta ishlab, "Ruixi Ecological Environment" kompaniyasi bilan gidroelektro stansiyalar qurish, "Tasly Group" kompaniyasi bilan shifobaxsh o'simliklar yetishtirish, "Xinjiang Xiangtaiyuan International Trade" kompaniyasi bilan qurilish materiallari ishlab chiqarish, "Chengdu Tour" kompaniyasi bilan turizm sohasida hamkorlik bo'yicha anglashuv memorandumlari imzolandi.

Tashrif doirasida viloyat rahbari Tyansindagi bir qator ishlab chiqarish korxonalarini, yirik kompaniyalar faoliyatini bilan tanishdi va ularning rahbarlari bilan uchrashuvlari o'tkazdi.

Viloyat hokimligi axborot xizmati.



Bir geftardan o'rtacha 5 ming dollar daromad olish kerak

Bu ayni paytda muhokamaga qo'yilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risidagi farmoni loyihasida belgilangan chora-tadbirlardan biri.

Bugun bir geftar yerdan bundan bir necha barobar ko'p daromad olayotgan tomorqachi, fermer va tadbirkorlar ham bor. Lekin ular juda kam. Maqsad ana shunday toifadagi dehqon va bog'bonlarni, tadbirkorlari ko'paytirish va xalqimizning o'z mehnatidan manfaatdorligini oshirishdan iborat.

Bizda ko'p hollarda oddiy aholi va fermerlar ham yerga ekin ekish yoki bog' yaratishda an'anaviy usullardan foydalaniшadi yoki har yili bir xil mahsulot yetishtirishga o'ргangan. Masalan, kartoshka ekadigan dehqon har yili shu ish bilan shug'ullanadi, sarimsoq eksa, ko'proq foyda olishini o'ylamaydi. Yoki katta tomorqasining bir chetida ixcham issiqxonaya qurib, yiliga million so'mlab daromad qilish mumkinligini o'ylamaydi. Fermerlarimiz ham davlat buyurtmasidan tashqari, ortiqcha maydonda yangi turdagi sabzavot yoki poliz mahsulotlari yetishtirish, yangi, mahsuldar urug'dan foydalaniшadi mumkin. Ammo bunga hafsala qilishmaydi.



Shu bois davlat dasturi loyihasida yerdan unumli foydalaniшadi, ko'proq daromad olish uchun yuqori avlodli va xorijiy davlatlaridan olib kelilgan urug'larni ekish, intensiv texnologiyalarni qo'llab, ekinlarni parvarishlash, jumladan, suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etishni yanada kengaytirish belgilanmoqda.

Shuningdek, loyihsada taklif etilayotgan qishloq xo'jaligi bo'yicha ustuvor maqsadlar, chora-tadbirlarning amalga oshirilishi bozorlarda mo'lko'chilik, elimiz dasturxonasi to'kinligi va bu mehnat bilan shug'ullanayotgan fermer va tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy barqarorligiga, yangi ish o'rinnari yaratishga xizmat qiladi.

Umuman, loyihsada taklif etilayotgan qishloq xo'jaligi bo'yicha ustuvor maqsadlar, chora-tadbirlarning amalga oshirilishi bozorlarda mo'lko'chilik, elimiz dasturxonasi to'kinligi va bu mehnat bilan shug'ullanayotgan fermer va tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy barqarorligiga, yangi ish o'rinnari yaratishga xizmat qiladi.

Shavkat SHARIPOV,
Oliy Majlis Senati a'zosi.

Davlat dasturi loyihsasi muhokamada



bilan tanishib, undagi chora-tadbirlar partiyamizning doimiy pozitsiyasiga hamohangligiga guvoh bo'ldim.

Tadbirkorlar yanada shijoat bilan mehnat qiladi

Dasturda 2025-yilda amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar, maqsadli rejalar, yaqin va uzoq muddatli strategiyalar aniq belgilab berilmoxda. E'tiborimni tortgan maqsad va vazifalardan biri tejamkor iqtisodiy rivojanish modeliga o'tish orqali 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulotning yillik o'sishini kamida 6 foiz va uning hajmini 200 milliard dollarga yetkazish, inflatsiyani 5 foiz, budjet taqchilligini yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3 foiz darajasida saqlash orqali yurtimizda kambag'allar sonini yanada qisqartirish va aholi farovonligini oshirish bo'ldi.

Bundan tashqari, aholini qulay va zamonaviy uy-joylar bilan ta'minlash, qayta tiklanuvchi muqobil quvvatdan samarali foydalish borasi da ham islohotlar davom etadi.

Xususan, 2025-yilda yangi quriladigan bino-inshootlar va uy-joylarga quvvat samaradorligidagi kelib chiqib, "Yashil bino" sertifikati joriy etilishi belgilanmoqda. Tadbirkorlikni yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida 2025-yil 1-sentabrdan boshlab tadbirkorlik subyektlari



davomida ekologik tekshiruvlardan ozod etish, xalqaro bozorlarga chiqish uchun qo'llab-quvvatlash hamda tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi doirasida qo'shimcha ballar berish rejalahsirtilmoqda.

Bunday tashabbuslar tadbirkorlar yanada g'ayrat bilan faoliyat olib borishiga turtki berishi shubhasiz.

Himmat OQBO'TAYEV,
"Adolat" SDP viloyat
kengashi raisi,
xalq deputatlari viloyat
Kengashi deputati.

O'zbek xalq
maqoli

El egasiz
bo'lmas,
to'n -
yoqasiz

2025-yil 18-yanvar, shanba,
7 (24.03)-son

Samarqand shahri hududi kengayadi

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi majlisida deputatlar Samarqand shahri, Samarqand va Oqdaryo tumanlari chegaralarini o'zgartirish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqdilar.

Ta'kidlanganidek, Samarqand shahring me'moriy qiyofasini yana-da yaxshilash va obodonlashtirish, xorijiy va mahalliy investorlarni jozibadorligini oshirish, hududning turizm salohiyatidan samarali foydal-anish, zamonaviy biznes, moliyaviy va turistik infratuzilmalarni jadal rivo-jlantirishni ta'minlash hamda servis xizmatlar turlari va sifatini oshirish borasida qator ishlar amalga os-hirish vazifasi yuklatildi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan, hududda 2023 – 2030-yillarda "Shirin" zamonaviy ishbilarmonlik markazi va turorjalar kompleksini barpo etish direksiyasini tashkil etish ishlari olib berilmoxda.

Shundan kelib chiqib, Vazirlar Mahkamasining taklifiha asosan, Samarqand tumanidan 170 hektar va Oqdaryo tumanidan 243 hektar yer maydoni Samarqand shahri tarkibiga o'tkazilishi nazarda tutilmoxda.

Majlida qaror loyihsasi tegishli mahalla fuqarolar yig'inalari, xalq deputatlari Samarqand shahar, Samarqand va Oqdaryo tumanlari hamda viloyat Kengashlarida muhokama qilinib, chegaralarning kartografik chizmasi va chegaralar chizig'ining tasnifi qiladi.

Ma'lum qullanganligi qayd etildi. Shun-dek, qaror loyihsida hududning chegaralarini o'zgartirish va unda belgilangan vazifalarni tizimli amalga oshirish maqsadida hukumga kompleks chora-tadbirlarni amalga os-hirish vazifasi yuklatildi.

Mazkur tuman va shahar chegaralarini o'zgarishi bilan "Shirin" zamonaviy ishbilarmonlik markazi tashkil etilib, ushu huidda 254 ta ko'p qavatlari uy-joylar, 19 ta ishbilarmonlik va biznes markazlari, 50 ta ijtimoiy soha obiektlari, 89 ta ko'ngilochar va savdo komplekslari hamda tarixiy shaharcha barpo etiladi.

Bundan tashqari, huidda 112 kilometr ichki yo'llari, piyodalar va velospiped yo'llalari, 6 kilometr yeri usti metro yo'lli, 2 ta katta ko'pri hamda 7,2 kilometr ichki kommunikatsiya uchun tonnel, 180 kilometr irrigatsiya qurumi hamda 14 kilometr kanal va ko'plab sug'orish inshootlari quriladi.

Deputatlarning fikricha, kiritilayotgan o'zgartishlar kelgusida aholi turmush sharoitini yanada yaxshilash, ishlash chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Qaror loyihsasi tasdiqlandi.

INDALLOSINI AYTGANDA...



Ibrohim G'AFUROV,
O'zbekiston Qahramoni:

- O'zbeklar bir-biriga odamgarchiligi bor- yo'qligiga qarab baho berib kelgan. Odamgarchilik qo'llanmagan soha yo'q. U qo'llanganda hal bo'lмагan chigal ishlari ham yo'q. Yurtdan faxrlanish ham, yurtni himoya qilish ham eng yuksak odamgarchilik deb qaralishi zarur.



Yurtimiz sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlarni izchil davom etirgan holda aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini oshirish va budget mablag'laridan samarali foydalanish maqsadida tibbiyot muassasalarida bosqichma-bosqich davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlari joriy etilmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2024-yil 5-sentabrdagi qaroriga ko'ra, 2025-yil 1-yanvardan viyoyatimizda ham viloyat darajasidagi tibbiyot muassasalarini yangi tizimga o'tdi. Tuman, shahar tibbiyot muassasalarida esa shu yilning 1-iyulidan davlat tibbiy sug'urtasi mexnanzimi yo'iga qo'yiladi.

DAVLAT TIBBIY SUG'URTASI

aholi uchun qanday qulaylik yaratadi?

TIBBIYOT MUASSASALARIGA-CHI?

Bugungi kunda ko'plab davlatlarda qo'llanilayotgan mazkur tizim yurtimizda dastlab Sirdaryo viloyatida sinab ko'rildi va 2024-yilda ushbu viloyat va Toshkent shahrida joriy etilib, aytish mumkini, o'zini oqladi, – deydi **Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi viloyat hududiy bosh mutaxassisasi Davron Razoqqov**. – Yangi tizimning bemorlar uchun afzalligi shundaki, tibbiy yordam sifati va qulayligi oshadi, tibbiy yordam hajmining davlat tomonidan kafolatlanishi va shafafligi ta'minlanadi, tibbiy xizmatlar uchun norasmiy to'lovlari darajasi pasayadi, sog'liqni saqlash tizimining aholi ehtiyojlarini o'z vaqtida va sifatli ta'minlashga qaratilganligi ortadi, salomatlikni yaxshilash, umr ko'rish davomiyligini oshirishga turki beradi. Tibbiyot muassasalarini va xodimlar uchun qulayligi esa bunda ish samaradorligiga qarab, barqaror moliyalashtirish joriy etiladi va bu tibbiy xizmat ko'rsatuvchilar o'rtasida sog'loni raqobatni rivojlantiradi, yangi korporativ boshqaruv usullarini joriy etish rag'batalanriladi, moliyaviy erkinlik va manfaatdorlik paydo bo'ladi.

Yangi tizimning davlat va jamiyat uchun ahamiyati shundaki, aholining barcha qatlamlarini tibbiy yordam bilan qamrab olish imkoniyati paydo bo'laadi, davlat va fuqarolarning umumiy javobgarligi shakllanadi, sog'liqni saqlash tizimining moliyaviy barqarorligi ta'minlanadi, sog'liqni saqlash xaratlarini va samaradorligini maqbullahtirish tizimi yo'iga qo'yiladi, sohada shaffotlik ortadi.

SUG'URTA UCHUN AHOLIDAN PUL UNDIRILMAYDI

Davlat tibbiy sug'urtasi doirasida bepul tibbiy xizmatlar ko'rsatish va dor vositalarini taqdim etish davlat budgetiga to'lanayotgan soliqlar hisobidan amalga oshiriladi. Bunda aholidan davlat tibbiy sug'urtasi uchun qo'shimcha to'lov undirilmaydi.

Prezidentimizning 2024-yil 5-sentabrdagi qaroriga qayd etilganidek, voyaga yetmaganlar, ta'lim tashkilotlari o'quvchi-talabalari, homilador ayollar va ikki yoshga to'iganlar bolasini parvarishlayotgan shaxslar, mehnat organlarida ishsiz sifatida rasmiy ro'yxatdan o'tganlar, davlat pensiyasini oluvchilar hamda "ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimi orgali kam ta'minlangan deb e'tirof etilgan oilalarning a'zolari ham davlat budjeti mablag'larini hisobidan qoplanadigan tibbiy yordamning kafolatlangan hajmlari, ya'ni kafolatlangan paketga kiritilgan bepul tibbiy xizmatdan foydalanishi mumkin. Faqat buning uchun belgilangan muddatlarida tegishli tibbiy ko'rniklari o'tish, olibay shifokorlarga yoki tibbiyot brigadasiga murojaat qilish talab etiladi. Bunda oilaviy shifokor davolash va tashxislash standartlari ga muvofiq tor soha shifokorlariga, zarur hollarda shifoxonalarga elektron yo'llanma beradi hamda bemor mazruk yo'llanma asosida tor soha shifokori tomonidan ko'rikdan o'tkaziladi va (yoki) shifoxonaga yotqiziladi. Ushbu tartibga riyo etilmagan hollarda tibbiy xizmatlari pulli asosda ko'rsatiladi.

2024-yil 1-yanvardan boshlab esa so'ngi yil davomida kamida olti oy jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soliqi yoki ijtimoiy soliq to'laganlar, shuningdek, belgilangan toifadagi shaxslar uchun davlat tibbiy sug'urtasi tizimida yugori texnologik tibbiy yordam bepul amalga oshiriladi.

Shu o'rinda yurdoshlari-mizga eslatib o'tishimiz lozim, kafolatlangan paket baracha hududlar uchun bir xil bo'ladi va Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi. Hozirgi kun-da vazirlig tomonidan 2023-yil 13-oktabrda tasdiqlangan kafolatlangan paket qo'llanmoqda.

AVVAL OILAVIY SHIFOKORGA MUROJAAT QILISH LOZIM

Davlatimiz rahbarining yuqorida qayd etilgan qaroridan kelib chiqib, Sog'liqni saqlash vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi kelishgan holda respublikamizning 5 ta viloyatida, jumladan, Samarqandda viloyat darajasidagi 20 ta tibbiyot muassasasi 2025-yil 1-yanvardan tibbiy sug'urtasi tizimga o'tdi, – deya so'zida davom etadi.

D. Razoqov. – Ularni moliyalashtirish endilida jamg'arma orqali amalga oshiriladi. Sirdaryo viloyati va Toshkent shahri tajribasidan kelib chiqib, hozirda bu shifoxonalarda yangi tizim asosida faoliyat yo'iga qo'yilmoqda. Albatta, yangilikni joriy etish oson kechmaydi, aholi va xodimlar o'ttasida ham tushuntirish ishlari olib borish, yangi tizim mohiyatini oshib berish kerak. Va ayni paytda bu borada sog'liqni saqlash boshqarmasi bilan birgalikda ish olib boryapmiz, xorijiy tajriba o'rganilmoqda. Yaqinda turkiyalik mutaxassislar bilan tajriba almashdik.

Yangi tizimda davolanish uchun tibbiyot muassasiga murojaat qilayotgan fuqaro kafolatlangan paketga kiritilgan tibbiy xizmatlardan bepul foydalanishi uchun avval oilaviy shifokorga murojaat qilish talabi mavjud. Bu haqda aholiga ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar orqali xabar yetkazidik, poliklinikalarda ham xalqimizga bu tartib targ'ib etilmoqda. Bugungi kunda viyoyatimizda 70 ta oilaviy poliklinika, 158 ta oilaviy shifokorlik punkti faoliyat ko'rsatmoqda. Bu muassasalarda tasdiqlangan shtat me'yorlariga asosan oilaviy shifokorlar mavjud. Agar yurdoshlarimiz doimiy ravishda ana shu shifokorlar bilan muloqotda bo'lsalar, salomatliklaridagi har bir o'zgarish yuzasidan ularga murojaat qilib borsalar, bininchaviy navbatda, o'z sog'liklari uchun, qolaversa, zaratut yuzaga kelganda shifoxonalarda statcionar yotib davolanishlari uchun bepul tibbiy paketdan foydalanishlarida quylgan.

Kezi kelganda shuni ham aytib o'tish kerakki, kafolatlangan paketga kiritilgan tibbiy xizmatlardan bepul foydalanish uchun avval oilaviy shifokorga murojaat qilish talabi rejali ravishda tekshirish va davolanish uchun yuboriladigan bemorlar uchun amal qiladi. Bemorlar hayotiga xavf soladigan shoshilinch va kechiktirib bo'lmaydigan tibbiy yordam olishni talab qiluvchi holatlar bundan mustasno. Bu fuqarolar sog'lig'i saqlash to'g'risidagi qonunda, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-sentabrdagi qarorida ham aniq belgilab qo'yilgan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi

Prezidentining 2003-yil 26-fevraldagi PF-3214-

-sonli farmoni bilan tasdiqlangan imtiyoziy to-

fadagi shaxslarga ham davlat budjeti mablag'larini hisobidan tibbiy yordam ko'rsatish tartibi saqlab qolindadi.

G'olib HASANOV.



Aholining PSIXOLOG larga ehtiyoji oshmoqda

Bizning suhabat

KO'RSATILAYOTGAN

XIZMAT?

SHUNGA MOSMI

Buvallari psixologga murojaat qilgan odamga munosabat boshqacha bo'lgan. Hozir esa bunga odatiy hol sifatida qaralmoqda. Ya'ni, fuqarolarning psixolog xizmatiga ehtiyoji ortib boryapti. Demak, aholining ruhiyatida o'zgarishlar, muammolar ko'paygan.

ular mehr va e'tibor, qiziqishini qo'llab-quvvatlashlarini istaydi. 2024-yilda tumandagi ana shunday toifadagi 260 nafar fuqaroga psixologik yordam ko'rsatdi.

Misol uchun, O'zbekiston mahallasida yolg'iz yashovchi bir fuqaro bilan qariyb 6 oy ishladim. Avval hisobchi bo'lib faoliyat yuritgan fuqaro hozir nafaqada. Yolg'izligi sababli odamlardan ajralib, stressga tushib qolqand. U kishi bilan doimiy urchashuvlar, suhbatalr tashkil qilib, faol tinglovchi bo'lishga, sabr bilan eshitishga harakat qildim. Terapiya sifatida fototerapiyadan ko'proq foydalandim. Ya'ni, o'zingin rasmlaridan ijobji xotiralarini etib berishini, qiziqishlarini so'rab, ularni amalda ham bajarishga harakat qildik. Mahalla ahli va ijtimoiy xodim bilan hamkorlikda fuqaroning odamlar bilan ko'proq muloqot qilishini hisobga olib, uyi oldida kichikroq savdo do'konni oshib berildi. Hozir u kishi savdo qiliyapti va bundan bi ham, uning o'zi ham kursands.

Bordi-yu odamlarning muammolariga psixologik yordam ta'sir ko'rsatmasa, unda qanday yo'i tutiladi?

- Albatta, psixolog xizmatiga ehtiyoji bor murojaatchi orasida to'rt muchasi sog', voyaga yetgan, asosan 20, 30 va 40 yoshdagagi hayot yo'il, manfaatlarini aniqlash va ishlashda qaynalayotganlar ham ko'p. Masalan, 20-30 yoshdagilarda shaxsiy hayot, oila quirish, ishga joylasish va ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq muammolar ko'proq. 30-40 yoshdagilarda esa depressiya, anksiozlik (qo'rquv va xavotir), muvaffaqiyatsizlik yechimi bo'yicha maslahat so'rashadi. Eng ko'p murojaat qildiganlarning asosiy toifalaridan biri ishni shaxsiy hayotdan qanday arjatishni bilmaydigan odamlardir. Shuningdek, shaxsiy muammolarini ommaga oshkor qilib, stressga tushib qolganlar ham yo'q emas. Bundan tashqari, axborotning haddan tashqari ko'pligi va doimiy ravishda o'zgarib turadigan hayot sharoitlari bilan zamoniaviy vaqt: davlat va u qabul qildigan qonunlar, mamlakat va dunyodagi siyosiy vaziyat yuzasidan hamda xavotirli yanqilklarni eshitib yoki ko'rib, psixolog va ruhshunoslarga ehtiyoj sezadiganlar ham bo'lib.

Bu toifadagi fuqarolar bilan muloqot jarayonida yoki amalga oshirilgan psixologik ishlar natijasida ularning muammolariga yuz foiz yechim topish qiyin. Bunday hollarda mijozlar bilan ishlashda ularning shikoyat lokusiga ko'prod e'tibor qaratamiz. Ya'ni, muammoga sababchi o'zimi (internal) yoki atrofdagilardan (eksternal) sabab izlaydim? Balki fuqaroning sog'lig'ida muammo borligi, o'zaro kelishmovchiliklari, og'ir toifadalgisi, stress, depressiya holatlari hisobga olinib, mahalla yettiligi, sog'liqni saqlash, IIB, FHDY, tuman hokimligi mas'ullari bilan hamkorlikda ishlaymiz. Jumladan, yaqinda tumanda probatsiya hisobida turgan 20 nafr xotin-qiz uchun trening va suhbatlardan tashkil etib, qiziqishiga ko'ra kasb-hunar, o'qish va ishga yo'naltirildi.

Tizimda qanday muammo va kamchiliklar bor, sohanai rivojlanish uchun nimalar qilish kerak?

- 10 yillik tajribamidan kelib chiqib aytishim mumkin, O'zbekistonda psixologik xizmat ko'rsatish sohasida bo'shliqlar ko'p. Xususan, "Inson" ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish markazida o'g'ir vaziyatga tushib qolgan fuqarolar bilan ishlashda maqsadida psixologlar faoliyati yo'lg'a qo'yilgan. Biroq mahallalarda faoliyat ko'rsatayotgan ijtimoiy xodimlar qilishlari, qiziqishlari, maosh kamligi, yetishmovchilik natijasida zararli illatlariga ruju qo'yish, oson pul topishga urinish, har doim bosimda bo'lish yoki kelajakdan qo'r-qish, insonlarning psixologik holatini yomonlashtirmoqda.

Inson psixologiyasiga kuchli ta'sir qilayotgan yana bir omil raqamli depressiya. Ya'ni, ijtimoiy tarmoqlar odamlarga o'ziga xos tarzda ta'sir etmoqda. Texnikaga haddan tashqari murojaat qilish, ijtimoiy tarmoqlardagi "ideal" hayotga o'zini solish depressiya olib kelmoqda. Mobil qurilmalar va onlaysiz ishlash tarihi olibay va shaxsiy hayotdagi muammolarni kuchaytiriyapti. Pandemiya odamlarning nafaqat sog'lig'iga, balki ruhiyatiga ham ta'sir qilmyab qolmadidi. COVID-19 pan-demiyasi davomida bo'lgan karantin va izolyatsiya odamlar orasida ijtimoiy aloqa buzilishini, aniq yo'llar va maqsadlardan tashqariga chiqishini va depressiyani olib keldi. Odamlar o'tasida o'zlarini o'rganish, qiziqishlar va hayotga bo'lgan munosabatlar o'zgardi. Ko'pholik xastalik va sog'lig' bilan bog'liq o'g'irliklar tuyfali o'zini yo'qotib, psixolog yordamga ehtiyoj sezmoqda.

- Asosan tazyiq va zo'ravonlikka uchragan, og'ir vaziyatga tushib qolgan yoki shu kabi holatlarga duch kelishi mumkin bo'lgan fuqarolar bilan ishlashizga to'g'ri keladi. Umuman, odamlar ko'proq qanday masalalarda murojaat qilishadi, ular bilan shaxsiy ishlaysiz?

- To'g'ri, aksariyat holarda ijtimoiy xodimlar tomonidan yo'naltirilgan ijtimoiy himoya qilingan, zo'ravonlikka uchragan, nogironligi bo'lgan, stressga tushgan yoki yolg'iz fuqarolar bilan ishlaymiz. Bunday toifadagi odamlar ko'proq salomatligi, kelajagi va oila a'zolarining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoldidan xavotirda bo'ladi. Asosiy,

Bu kabi muammolarga yechim topish va fuqarolariga sifati psixologik yordam ko'rsatish uchun birinchini yozib, muammolarini eshitib, tahsil qilish uchun kunlab, haftalab vaqtsi, muammolarini hal qilishga oylab muddat kerak. Bu esa ijtimoiy markazlarda fuqarolar bilan ishlash uchun ikki nafar psixolog kamil qilishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, markazlarda zamoniaviy talablariga javob beradigan alohida psixologik xonalar ham yo'q.

Bu kabi muammolarga yechim topish va fuqarolariga sifati psixologik yordam ko'rsatish uchun birinchini yozib, muammolarini eshitib, tahsil qilish uchun kunlab, haftalab vaqtsi, muammolarini hal qilishga oylab muddat kerak. Bu esa ijtimoiy markazlarda fuqarolar bilan ishlash uchun ikki nafar psixolog kamil qilishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, markazlarda zamoniaviy talablariga javob beradigan alohida psixologik xonalar ham yo'q.

Bu kabi muammolarga yechim topish va fuqarolariga sifati psixologik yordam ko'rsatish uchun birinchini yozib, muammolarini eshitib, tahsil qilish uchun kunlab, haftalab vaqtsi, muammolarini hal qilishga oylab muddat kerak. Bu esa ijtimoiy markazlarda fuqarolar bilan ishlash uchun ikki nafar psixolog kamil qilishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, markazlarda zamoniaviy talablariga javob beradigan alohida psixologik xonalar ham yo'q.

Bu kabi muammolarga yechim topish va fuqarolariga sifati psixologik yordam ko'rsatish uchun birinchini yozib, muammolarini eshitib, tahsil qilish uchun kunlab, haftalab vaqtsi, muammolarini hal qilishga oylab muddat kerak. Bu esa ijtimoiy markazlarda fuqarolar bilan ishlash uchun ikki nafar psixolog kamil qilishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, markazlarda zamoniaviy talablariga javob beradigan alohida psixologik xonalar ham yo'q.

Bu kabi muammolarga yechim topish va fuqarolariga sifati psixologik yordam ko'rsatish uchun birinchini yozib, muammolarini eshitib, tahsil qilish uchun kunlab, haftalab vaqtsi, muammolarini hal qilishga oylab muddat kerak. Bu esa ijtimoiy markazlarda fuqarolar bilan ishlash uchun ikki nafar psixolog kamil qilishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, markazlarda zamoniaviy talablariga javob beradigan alohida psixologik xonalar ham yo'q.

Bu kabi muammolarga yechim topish va fuqarolariga sifati psixologik yordam ko'rsatish uchun birinchini yozib, muammolarini eshitib, tahsil qilish uchun kunlab, haftalab vaqtsi, muammolarini hal qilishga oylab muddat kerak. Bu esa ijtimoiy markazlarda fuqarolar bilan ishlash uchun ikki nafar psixolog kamil qilishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, markazlarda zamoniaviy talablariga javob beradigan alohida psixologik xonalar ham yo'q.

Bu kabi muammolarga yechim topish va fuqar

O'ZBEKCHA YOZISHGA UYALASIZMI?

Dugonam bilan shahrimiz ko'chalarini aylanarkanmiz, savdo do'konlari, xizmat ko'rsatish shoxobchalar peshlavhalaridagi yozuvlar, reklama va e'lionlarning xorij tillarida yozilgani e'tiborimizni tortdi. "Coffee Time", "Rayol Vills", "Dreams house", "Dostavka", "Dobro pojolovat" va shu kabi so'zlar o'zbek adabiy tili me'yorlariga zid ravishda yozilgan. Yozuvlar ichida eng kattasi "SALE UP TO 70% OFF!" degan yozuvning ma'nosi dugonamdan so'radim. "Bu chegirma degani, ya'ni mahsulotlari 70 foizgacha arzonlashtirilgan", deb javob berdi. Xo'sh, nega buni o'zbekcha yozishmag'an?

«Davlat tili haqida»gi qonunining 20-moddasida «Lavhalar, e'lонlar, narxnomalar va boshqa ko'rgazmali hamda og'zaki axborot matnlari davlat tilida rasmiy-lashtiriladi va e'lон qilinadi hamda boshqa tillarda tarjimasi berilishi mumkin» deyilgan. Afsuski, shaharda aksariyat obyektlarni nomlashda bunga amal qilinmayapti. 2023-yilda ijtimoiy tarmoqlarda o'zbek tilidagi kontentning ulushi bor-yo'g'i 15-20 foizini tashkil qilgan. Kontent asosan rus va ingliz tillarida tarqatiladi. Bu yoshlar orasida o'zbek tilidagi mazmuuni axborot yetishmasligi va natijada o'zbek tiliga qiziqishning kamayishiga sabab bo'lmoqda.

Misol uchun, xorijdagi aksariyat mamlakatlarda ishslash yoki o'qish uchun o'sha davlat tilini bilish ta-



lab etiladi. Buzda-chi? Nega bunday amaliyot yo'q?

O'zimizda ishlaydigan xorijliklar va tahsil oluvchi tala-balalar soni ham kam emas. O'zbek tilini rivojlantirish, mayqeini oshirish uchun avvalo, ona tilimizni oilada, ta'lim muassasalarida hurmat qilishni o'rganishimiz, tilimizga yangi so'z kirib ke-

lishi bilan muqobil shaklini qo'llashimiz va lug'atlarga kiritishimiz kerak. Shuningdek, o'zbek tilini o'qitish markazlari, o'zbekcha tarjima dasturlar joriy qilish va barcha sohalarga oid lug'atlar chop etish lozim.

**Sunbulah AHMADOVA,
Muxlisa MISIROVA,
SamDChTI talabalari.**

SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

20-YANVAR

Kurshid DAVRON - 1952-yilda Samarqand tumanidagi Chordara qishlog'ida tug'ilgan. O'zbekiston xalq shoiri. "Do'stilik" ordeni sohibi.

Adham HAYITOV - (1951-2020) Urgut tumanida tug'ilgan. Jurnalist, "Shuhrat" medali sohibi.

21-YANVAR

Shuxrat ABDUMALIKOV - 1970-yilda Samarqand shahrida tug'ilgan. Teatr rassomi. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan san'at arbobi.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lонlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

O'CHIQ MA'RZA O'TKAZILADI

SamDU tibbiy pedagogika, olyi hamshira-lik ishi va xalq tabobati fakultetining psixiatriya, tibbiy psixiologiya va narkologiya hamda nevrologiya kafedrasi xodimlarining psixiatriya va narkologiya fanidan 2-son davolash ishi fakultetining 511-515-guruh talabalari uchun ochiq integral ma'ruzasi 2025-yil 12-fevral kuni soat 10:00 da bo'lib o'tadi.

Mavzu: "Shaxsiyat buzilishi. Shaxs strukturası, tasnifi, dinamikasi, P.B.Gannushkin bo'yicha tashxisiy mezonlari, nevrotik kasalliklari bilan defferensial diagnostikasi, davolash va profilaktika usullari".

Ma'ruzachilar: psixiatriya, tibbiy psixiologiya va narkologiya kafedrasi v.v.b. dortsenti, PhD, Ch.A. Kuchimova hamda nevrologiya kafedrasi v.v.b. dortsenti, PhD, M.M.Mamurova.

Manzil: Psixiatriya, tibbiy psixiologiya va narkologiya kafedrasi ma'ruzalar zali.

Ekspert: Ochilov U.U.

Komissiya a'zosi: Karabaev S.A.

Takif qilinganlar: 2-son davolash ishi fakultetining 511-515-guruh talabalari, magistratura rezidentlari va klinik ordinatorlar, o'qib bo'limi, kafedra o'qituvchilar va barcha qiziquvchilar.

Kafedra mudirlari: t.f.n, dotsent, A.S.Velievaya hamda t.f.d, professor, A.T.Djurabekova.

DAVOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Tuxtamurod Akbarga (2010-yil 22-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasida marhum Imomova Saodat Xamrokulovnaga (2015-yil 1-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasida marhum Rasulov Muminga (2008-yil 17-sentabreda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Oqmachit ma-hallasi, Bag'rikenglik ko'chasi, 4-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Nurqosim Jamshid Sayfiddinovich notarial idorasida marhum Rasulov Muminga (2008-yil 17-sentabreda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Nurqosi-

fanlari nomzodi ilmiy darajasiga ega bo'ldi.

Olimlik yarashgan inson

Yonimizdag'i odamlar



Samarqand azaldan olimu ulamolar, ma'rifa parvar insonlar kamolga yetgan muqaddas zam'in sanaladi. Bu yurtning har bir go'shasida ulug'larining izi bor, qutlug' qadamjolar mavjud. Va yillar, asrlar o'tsa-da, Samarqandning ilm-ma'rifa, madaniyat markazi sifatidagi maqomi, nufuzi yuksalsa yuksalyaptiki, aslo kamaygan emas. Bunda shubhasiz, ayni chog'da qadimiy kentda ilm yo'lida zahmat chekib, yoshlarni ma'rifatga boshlayotgan, xalqimiz qalbini yoritayotgan olimlarning munosib hissasi bor.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti yadro fizikasi va astronomiya kafedrasi professori, fizika-matematika fanlari doktori Mo'min Qodirovich Qodirov ana shunday fidoyi insonlardan, Samarqandning asl farzandlaridan biridir.

Mo'min Qodirov 1955-yilda Toyloq tumani Jumabozor qishlog'ida tug'ilgan. Shu qishloqda o'rta maktabda o'qib, uni oltin medal bilan tamomlangan va 1972-yilda Samarqand davlat universiteti fizika fakultetiga o'qishga kirgan.

Universitetni imtiyozi diplom bilan bitirgach, mehnat faoliyatini Toyloq tumani 28-maktabda fizika va astronomiya fani o'qituvchisi sifatida boshlagan. 1979-yilden Sadreddin Ayni nomidagi Samarqand pedagogika institutida faoliyatini davom ettirdi. Ilm sirlarini o'rganishga bo'lgan qiziqish yoshi xodimni sobiq ittifoq Fanlar akademiyasi Sibir bo'limining Fizika institutiga yetakladi. Chunki o'sha vaqtarda aspirantura kirish ancha qiyin bo'lgani sababli domla Krasnoyarsk shahriga rafiqasi bilan ko'chib bordi. 1981-1990-yillarda ustozlari, professorlar A.Popov va V.Slabkolar rahbarligida lazer fizikasi va nochiziqli optika sohasida ilmiy izlanishlar olib bordi va Krasnoyarsk davlat universitetida aspiranturani bitirdi. 1990-yilda nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyligi himoya qilib, fizika-matematika

fanlari nomzodi ilmiy darajasiga ega bo'ldi.

– Ilmiy xodim bo'lishimda fizika instituti muhim bosqich bo'ldi, chunki kogerent optika laboratoriyasida laborantlikdan kichik ilmiy xodimgacha bo'lgan yo'lni bosit o'tdim, – deb o'sha yillarni xotirlaydi M.Qodirov. – Mustaqil hayot qiyinchiliklari va musofirchilikni ko'rdim, sodiq do'stlar orttirdim, nochiziqli optika va lazer fizikasining yirik namoyandalari, sobiq ittifoq Fanlar akademiyasi akademigi K.Aleksandrov, muxbir a'zosi S.Rautian, professor S.Axmanov hamda dunyoga tanilgan yozuvchi V.Astafevlar bilan turli ilmiy va madaniy tadbirlar da ishtiroy etdim.

M.Qodirov 1990-yilning oxirida Samarqandga qaytib keldi va Samarqand davlat universiteti muhandis, ilmiy bo'lim boshlig'i, dekan, ilmiy ishlar bo'yicha prorektor, kafedra mudiri lavozimlarida faoliyat ko'rsatdi.

1992-2016-yillar davomida M.Qodirovning bevosita ishtirokida SamDU bazasida o'nlab xalqaro konferensiya va simpoziumlar tashkil qilindi. Samarqand shahringin 2750 yilligiga bag'ishlangan xalqaro konferensiyalarni o'tkazishda faoliik ko'rsatdi. 2009-yilda nufuzli olim R.Ganeyev ilmiy maslahatchiligidagi doktorlik dissertatsiyasini himoya qilib, fizika-matematika fanlari doktori ilmiy darajasini oldi. Shu paytgacha olimning 200 ga yaqin ilmiy, ilmiy uslubiy ishlari, jumladan, ularning 30 dan ortig'i xalqaro nufuzli jurnallarda chop etildi. 3 ta monografiya, 2 ta o'quv qo'llanma yaratadi. Ayni paytda M.Qodirovning Xirsh indeksi 10 ga teng. Uning ilmiy rahbarligi va maslahatchiligidagi 2 ta falsafa doktori (PhD) va 1 ta fan doktori (DSc) dissertatsiyasi himoya qilindi.

M.Qodirov 2007-2012-yillarda Xalqaro Lazerlar Assotsiatsiyasining a'zosi va uning O'zbekistondagi eksperti sifatida ham faoliyat olib bordi. 2024-yil noyabr oyida esa Mo'min Qodirov pedagogika ta'limi xalqaro

akademiyasining muxbir a'zoligiga qabul qilindi.

– Hayotim davomida maktabda va olyi ta'limda, keyin ilmiy va ish faoliyatimda bag'irkeng ustozlar saboqlarini olib, ularning maslahat va tavsiyalariga amal qilib, kam bo'lmadmadi, – deydi Mo'min Qodirov. – Bu o'rinda universitetimizning sobiq rahbarlari akademik T.Mominov, professorlar M.Jo'raqulov, T.Shirinov, ilmiy ishlar bo'yicha prorektori A.Shekdan, ayni paytdagi rektorimiz, O'zbekiston Respublikasi Fan arbobi R.Xolmurodovdan minnatdormon. Haligacha biror va masalada bir qarorga kishiga qiyalsam, ustozlardan maslahat so'rayman.

M.Qodirov ishda qattiqko'l va talabchan bo'lsa-da, xushchaqchaq va samimi, oddiy inson. Aksariyat kishillardan farqli ravishda odamlarni toifaga ajratmaydi. Muhim, o'zi singari ko'ngli ochiq, to'g'riso'z, kamtarin bo'lsa, bas.

Hayotini ilm-fan, ta'lim-tarbiyaga bag'ishlab kelayotgan yetuk olim, fizika-matematika fanlari doktori, professor Mo'min Qodirovning qutlug' 70 yoshi bilan tabriklab, unga mustahkam sog'iq, ilmiy-pedagogik faoliyatida muvaffaqiyatlar tilaymiz.

Shavkat MAXMADMURODOV,
Safarboy QURBANIYAZOV.

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali

TANLOV E'LON QILADI!

Katta o'qituvchi lavozimiga: Jismoniy tarbiya, sport nazariysi va uslubiyati kafedrasiga.

Tanlovdan ishtirok etishni istaganlar quyidagi hujjatlarini taqdim etadilar:

Filial direktori nomiga ariza, yashash joyi ko'rsatilgan passport nusxasi, kadrлari qayd qilish shaxsий varaqasi, olyi ma'lumoti haqidagi diplom nusxasi. Qatnashuvchilarda ilmiy daraja, ilmiy unvon, shuningdek, ilmiy ishlari va ixtiolar mavjud bo'lgan taqdirda ularga tegishli diplomlar, attestatlar

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasida marhum Muxtarov Ulmasga (2011-yil 12-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Shohrux Mirzo ko'chasi, 26-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Norqulov Kamoljon Toshbotayevich notarial idorasida marhum Gubaydullina Flyuraga (2024-yil 13-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 126-uy, 4-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahriyevna notarial idorasida marhum Gafurov Abdurasulga (2013-yil 2-sentabreda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahriyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Zikirova Shahlo Habibova notarial idorasida marhum Asarov Kurbanovichga (2024-yil 27-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Zikirova Shahlo Habibova notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 156-uy.

uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xolmurodov Anvar Xolmurod o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mir Said Baraka ko'chasi, 40-“A” uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi not

Turkiston, Buxoro, Xivada gazet nima ekanligini hanuz mingdan bir kishi bilmaydur. Agarda mingdan birgina bilsa edi, o'n uch milyon Turkiston va Buxoro va xivalik qarindoshlarimizdan "Turkiston" va "Tujor" gazetalarini bir ming uch yuz nafardan, albatta, mushtariysi bo'lur edi. Holbuki, bu uch mamlakati azima ahlidan ik(ki) gazetni mazkur adadga barobar mushtariysi bo'limasa kerak ("Turkiston..." gazetini hukumat amri-la olaturlig'on qozi va volos(t)noylar bu hisobdan xoridirlar). Oni uchun gazet nimadur va na foyda etar va qachon chiqdi va ilmlik mamlakatlarga gazet ahvoli va adadi na tariq ekanligi to'g'risinda bir oz yozmoqni lozim bildim.

Hozir 195 sana muqaddam zamona qarindoshlarimizdan "Turkiston" va "Tujor" gazetalarini keraqlik amr va farmoishlarini kog'azga yozib, umumiy xalqqa bildirmoq uchun tarqatib va ko'rurun joylarga osib xalq ma'lumotini ko'payturmoqiga sabab bo'lurlar edi. Hozirdan 1560 sana muqaddam yana farang hukumatlar orasig'a har bir yangi ish va keraklik kog'azlarni gazet ismlik ikki tiyinliq aqcha badalig'sotila ekanki, uning-chun "gazet" atalibdur. 1615 sanyasi miqdoriyagacha gazetlar "dastnavis" va g'ayri mutnazam chiqar ekan. So'ngra bosma bo'lib chiga boshabduri. Bora-bora barcha ilm va xabarlar mamlakat va hukumatlar xalq orasig'a jaridai mo'tabar bo'lib, diniy, fanniy, siyosiy, sanoyi, ijtimoiy, ixtiroiy va har guna bahislarni yozmoqg'a boshlab hozirg'i darajasig'a

GAZET nadur

kelturdilar. So'ngralari ahli islamni mutaraqqiy va mutamaddin mamlakat va hukumatlar xalqi orasig'a joriy bo'ldiki, bu kun Misr, Istanbul, Hijoz, Quddus mamlakatlariga har xil gazetlardan yuzdan ziyoda chiqar hind va ibronga ham ko'paya boshlabdi. Misr, Istanbul, Qudusdi sharif mamlakatlariga turkiy, arabiy va forsiy gazetlar xeyli taraqqiy topib, ulamoyi amiro va udabo ko'b rivod berib, din va millat naflilikiga iqror qilg'ondurlarki, olami islomg'a gazetlarni yetkurgan nafni boshqa vaqt yozarmiz.

Har kun va yo haftada bir necha martaba chiqatqur'on varaqha axboroni gazet, gazeta va olami islam orasida jaridai um ataladur. Haftada va oyinda bir necha martaba chiqatqur'on va kitobcha shaklinda ibratnamo pand va xabarnoma risolalarini, jurnal va olami islam aro majalla ataladur. Jarida va majallalardan ba'zisi ajoyib va g'aroyib tasvirot va plonlik bo'ladur.

Rusiya mamlakatida 1753 sanayi modiyaga bir necha martaba gazet chiqqa boshlab va al-on har nav jarida majallalarni adadi bir mingga yetib, balki, ortadur. Rusiya musulmonlaridan boshlab chiqqan jaridayi muhtaram "Tarjuman"durki, janob Ismoilbek afandini sa'y va g'ayrati ilan bu kun yigirma besh yoshidur. Rusiyada hur-



riyati matbuot joriy bo'lgani uchun 1905 sanasindan boshlab Rusiya musulmonlari g'ayrati ila 30 dan ziyoda jarida va majallalar Rusiya olami islomiyaga tulu' qilib, ammo o'qug'uvchi va olg'uvchining ozligi uchun bugungi o'n qadaridan boshqasi chiqmadi. Ba'zisi doim fuqaro naf va hukumat zararig'a yozib turgani uchun hukumat tarafidan yopturildi. Va hozirg'i o'n qadar jarida va majallayi islomiyalar ham mushtariysizlikdin va xalqimizni

o'qumoq va bilmog'ga havas qilmag'anidan, to'g'risi, xalqimizni nodon va bexabarligidan musulmoniy jaridalarimiz jon uzub turmoqda va anqariyb yana ba'zisi chiqmay qolib dunyodagi ilm va xabarlik musulmon qarindoshimizdan va ajnabiyo do'st-dushmanlarimizdan bizlarga ayb va afsus yog'duradur...

Hafta, yillik bir jarida va majallani chiqmoqiga yilinda to'rt-besh ming so'm kerakki, bu aqcha mushtariylardan jamlanur. Oni uchun gazet o'quvchilarni ko'b va ozlig'i jaridalarni ko'b va ozligig'a sabab bo'lur. Va har toifa va din ahlini donishmandi va dingga zamona xizmat qilg'uchisi qancha ko'b bo'lsa, jaridasida shuncha ko'payadurki, bu da'vo ahli ilm va xabar qoshinda sobit va ma'lumdir. Rusiya musulmonlari ichidin ba'zi donishmandlar ko'b va qattiqchilikni zimmalari ga'olib bir necha jarida va majallalarni zo'rg'a chiqarib turubdurlar. Va ba'zi saxovatlik boylarimiz, zarbg'a qaramasdan, jarida va majalla chiqarib turubdurki, u jumladan, bokulik janob Hoji Zaynulobidin Taqiyev, o'renburglik Muhammed Zokir va Muhammed Shokir Romiyeev va toshkandlik Saidkarimboy Saidazimboy o'g'li janoblari va boshqalardur...

Jaridalarg'a dunyodagi barcha yangi va eski xabar va ishlar davlatlar orasidagi robitiyat ixtilof va nizo va har bir davlatni quvvati moliya va harbiya va siyosiyasi va hukumatni har kungi yangi zakun va prikaz va tartibnomalari har bir xalqni va din ahlini taraqqiy yo tanaz-zuli va sababi va hukumat o'z fuqarosi to'g'risig'a qilib turgan yaxshi va yomon tadbir va hokimorlig'i va muddosa har bir mamlakatni tijorat, sanoat, ziroat to'g'risindagi xabar va mulohazalar uloma, hukamo va udabo tarafidan xalqqa teyshli nasihatlar hukmon va har xil

ma'mur va mansabdorlarni adli yo jivar va zulmi va fuqarolarni bul to'g'risida gi arz va dodi xulosayi dunyoga neki kerakdur va tirikchilikg'a lozim bo'lador jarida va majallalarg'a yozilib turar, xalqqa daf'i zarar va jalbi manfaat uchun yo'l ko'rsatib turar... Har firqani o'z din va millatig'a qilatur'on xizmat va millatparastlik o'shal firqani gazetila ma'lum o'lur, har toifani jaridalar o'shal toifani miqyos va mezonidur.

Voizi umumiyyasi va nosih muassiriydur. Sho'yaki jarida oyinai jahannamodur. Gazet o'qiydurg'on kishi dunyodagi barcha xabar va hodisalarni va har toifani taraqqiy va tanazzuli va uni sabab va illatini, o'z din va millatig'a qayu toifa do'st, qayu toifa dushmanlig'i bilur. Hayoti ijtimoiyasiga na lozimdu bilar. Jarida va majallalarni o'quy bersa, tirikchilikg'a va hozirg'i zamonag'i na kerakdur, barchasig'a ilm va fikr hosil etar. Muvoifiq zamon sa'y va tadbirg'a kirar... jarida va majallalar diniy, fanniy, siyosiy, adabiy, latoyif, mazxakiy, iqtisodoiy, harbiy va oliy oxir qismalarig'a bo'lunur va ba'zilari musavirga har xil odam va hayvonot va oshjor va ajoyibot dunyon surat va plonlarini ko'rsatur.

Har toifani ilm va sa'y va harakati jarida va majallalarning adadi va alardin istofa qilinurgan pand va ilm va ma'nosisi ila bilinur. Buz bu mahdalda dunyodagi ahli ilm va xabar davlat va xalqni jaridalaridagi adadidan namuna ko'rsatib ushbu maqolamizni tamom qilarmiz.

**Samarqandiylar mufti Mahmudxo'ja BEHBUDXO'JA xatib o'g'li "Tujor".
1907-yil 11-noyabr. № 11.**

(Sirojiddin Ahmadning "Mahmudxo'ja Behbudiy" kitobidan olindi.)

Adham Hayitov nomini "Zarafshon" mushtariylari yaxshi taniydi. U qariyb 50 yil shu dargohda mehnat qildi, hayotini shu tahririyatga bag'ishladi. Oddiy musahihlikdan muharrir o'rribosarligigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi. Bo'lim boshlig'i sifatida savdo va sanoat sohalari haqida dolzarb maqolalar, jonli reportajlar tayyorlagan bo'lsa, muharrir o'rribosari bo'lganida gazeta mazmun-mundarijasini boyitdi, mas'ul kotib sifatida gazetani yanada ko'rimli chiqarishiga intildi. Bu orada o'nlab yoshlarga ustozlik qildi, yosh muxbirlarga sohaning nozik jihatlarini o'rgatdi.

Maqola qor yog'sa chiqadi...

taniqli jurnalista, qalami o'tkir ijodkor, yoshlarning sevimli ustozini Adham Hayitov hayot bo'ganida bugun 74 yoshga to'lardi



chiqqandim, "Maqola qor yog'sa chiqadi", deb telefonni o'chirdi.

Hayron bo'ldim – rostdan qor yog'sa chiqadimi yoki jahil bilan aytdimi?

Bir necha kundan so'ng ertalab turib, tashqariga qarasam elakdan tushayotgan unday qor yog'yapti. Adham akaning gapni esimga tushib, yana qo'ng'iroq qildim. "Maqola chiqdi" degan xabarni eshitdim...

Gazetani qo'lg'a olgan Xo'roz aka xursand bo'lib, "baraka toping, uka, biz haqimizdag'i maqola zo'r chiqibdi", deb minnatdorlik bildirgandi.

Keyinchalik tahririyatda uchrashganimizda Adham aka "maqolada elektrichilarning qor kechib, oq'ir sharoitda ham burchini bajarib, ishlayotgani haqida yozgansiz, uni qanday qilib quyoshli kundurlarga gazetaga berish mumkin? Shuning uchun yana qor yog'ishini kutdik", degandi.

Adham Hayitov ana shunday, o'z ishining ustasi, jurnalistikada har bir nozik jihatni hisobga olardi.

Rabbim HOTAMOV,
O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi.

Hamkasblarni xotirlab



"U shoir yuragi, shoir yuragi"

Oqdaryodagi Yangiyo'rg'on qishlog'i Qoradaryo va Oqdaryo oralig'idagi maskan sifatida tarixda qolgan. So'fi Ollohyor va Eshon Vola tarixi bilan bog'liq manbalarda bu qishloqqa ko'p va xo'p ta'riflar berilgan, unda yashab, ijod qilgan shoiru olimlar sanab o'tilgan. Miyonqolda tug'ilib o'sgan, tarbiya topgan ana shunday ijodkorlardan biri Surat Oripov edi.

Akam Samarcanda hisobchilar malakasini oshirish muktabida rahbar bo'lish barobarida ko'p kitob o'qir, she'rlarni yod aytar, o'zi ham gazetalarda maqola yozib turardi va menga ham qalam tebratishni o'rgatgan joylari ko'p.

Xullas, bir kuni "Jajji Nasiba" nomli maqola yozdim. To'g'risi, uning janrini ham bilmasdim.

Uni konvertga joylab, pochta orqali viloyat gazetasiga yubordim. Akam bu kishi haqida ko'p iliq gapirgani uchun konvert tepasiga "Sur'at Oripovga" deb ham yozib qo'ydim. Yozgan maqolam qahramoni – Karomat ayaning shaharda yashovchi to'ng'ich farzandi Salimjonning uyiga kelishi, jajji Nasibaning "nima olib keldingiz, momo", deb qarshisiga peshvoz chiqishi va Karomat ayaning nabirasiga "Voy, asalginam, senga bir qop ertak olib keldim", deb bergan javobi, qiziqoqon nabiraning esa "Buvijon, buvijon, iltimos, ertak solingan qopirgizni bir ko'rsating", degan xarxashalari tasviridan iborat edi.

Ko'p o'tmay kaminaga gazeta madaniyat va turmush bo'limi mudiri S.Oripov imzosi bilan javob xati keldi: "Hurmatli A.Ashurov, "Jajji Nasiba" nomli qatra hikoyangizni oldik. Unda sizning topqirilgingiz va ijodja bo'lgan qiziqishingiz sezilib turibdi. Uni "Lenin uchquni" gazetasi yoki "Gulxan" jurnaliga yuborishingizni maslahat beramiz".

Garchi hikoyamni chop etishmagan bo'lsa-da, o'shanda tanilub qolgan ijodkor imzosi bilan maktub olish men uchun chinakam bayram bo'lgan. Mana, o'sha voqeaga ham 52 yil bo'libdi. Biroq ustozning oddiy, samimiy bir xati menga oq yo'l sifatida yozilgанин endi anglab turibman. Chunki undan keyin juda ko'p maqolalarim markaziy gazetalar, jurnallarda bosildi.

Toshkent davlat universitetida o'qish jarayonida Rauf Parfi, Azim Suyun, Shahodat Isaxonova, Yo'ldosh Eshbek kabi ijodkorlar safida bo'lish nasib etdi. Meni quvontirgani shuki, ularning har biri Sur'at aka haqida, u kishining insoniy fazilatlari to'g'risida ko'p gapirishardi. 1976-yilda Rauf Parfi menga Sur'at aka bilan hammallikda chop etilgan "Subhidam" kitobini sovg'a qildi. Bu mo'jaz



asar kitob javonimning eng nodir javohirlaridan bira sanaladi. Viloyat gazetasida o'quv hamda ishlab chiqarish amaliyotlarini o'tash chog'ida Sur'at aka bilan ko'p bor uchrashdik. Mavzular berib, maqola yozdirdi, yozganlarini tahrir qilib, gazetada chop etishga ko'maklashdi. U kishining ish jarayoni, ish uslubi, kasbiq sadoqati va iqitorini ko'rib, o'zim uchun ko'p saboq olgaman. Ayniqsa, bu odamning hamma bilan topishishi, samimiy munosabati havasimni keltirgan va aksincha, badiiy ijodga yengil yondashganlarga jahil qilganlarini ham ko'rganman.

Sur'at aka meni bir necha bor uyiga taklif qilgan. Ra'no yanganing qo'lidan choy ichgannimiz.

- Sur'at aka 1973-yilda shogird bo'lib tushganman, - deya xotirlaydi O'zbekistonida xizmat ko'rsatgan jurnalista Farmon Toshev. - Sur'at akadagi salohiyat, topqirlik, hozirjavoblik, badihoga'ylik biz, shogirdlarni lol qoldirgan. 1975-yilda ishga kelganimdan keyin esa har kuni ishlani yangi yozgan she'rini o'qib berishdan boshlardi. "Uka, hayotning ijodja bag'ishladingmi, ko'chada ham, ishda ham, uyda ham, kerak bo'lsa, uyquda ham ijodkor bo'lishni, muntazam yozishni o'rgan", derdi.

Sur'at aka kasalligi tufayli hayotdan erta ketdi. Lekin hanuz shogirdlari u kishini davralarda eslab turishadi. Chunki shunday ehtiromga munosib inson edi.

Kamina ham viloyat teleradiokompaniyasiga ishga kelgan chog'larimda S.Oripov ijodi va faoliyati bilan qiziqib, u kishining nomini abadiylashtirish takliflari bilan chiqdim. Ziyolilar, turmush o'rtoq'i Ra'no yanga talabi bilan Yangiyo'rg'on shaharchasidagi ko'chalarning biriga Sur'at Oripov nomi qo'yildi.

Sur'at akaning do'stleri, shogirdlari niyoyatda ko'p edi.

Oqdaryolik Parda baxshi Oqbo'tayev, ishtixonlik tarixchi olim Komil Pardayev, turli tahririyatlarda faoliyat ko'rsatgan Niyozen Aliyev, Baxtiyor Bobonov, Kubarro Bahromova, Oyulg'amatova, Xosiyat Bobomurodova, Abdumurod Izmamatov, Ziyodulla Nurmatov, O'ktam Qurbonov, Yo'ichi Muhammadiyev, Tohir Doliyev kabi ko'plab iste'dodlar o'z vaqtida bu mehrli ustozning samimiyatidan, qo'llab-quvvatlashidan bahramand bo'lgan.

S.Oripov ijodkor sifatida ko'p davralarda yo'qlanib kelyapti. Farzandlari tashabbusi bilan "So'g'diyona" nashriyotida shoirning o'zi chop etishga ulgurolmay qolgan "Tovushlar va ranglar" nomli kitobi nashr etildi.

Sur'at aka qisqa umr ko'rdi, biroq ana shu davr ichida u adabiy yotimizda iz qoldirishga ulgurdi, shogirdlar tayyorladi, kasbga, she'riyatga sadoqat bobida ibrat ko'sata oidi.

Abdurrasul ASHUROV,
faxriy telejurnalist.



ISSN-201667X



Sotuvda
narxi kelishilgan holda

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 14 032 nusxada chop etildi. Buyurtma 29. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshabna, payshanba va shanba kundari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E'LONLAR:** (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61